

**TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISH VA UNING BARQARORLIGINI
OSHIRISH MEXANIZMLARI**

*QARSHIYEVA FOTIMA VAHOB QIZI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH
UNIVERSITETI IQTISODIYOT VA BOSHQARUV
FAKULTETI MENEJMENT YO'NALISHI TALABASI*
E-mail: fotimaqarshiyeva20@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'minot zanjiri tushunchasi va uning tarkibiy qismlari, ta'minot zanjirini boshqarish va barqarorligini oshirish mexanizmlari yoritib berilgan.Ta'minot zanjirining boshqaruv vazifalari nimalardan iborat ekanligi,uni samarali boshqarish nimalardan iboratligi ta'kidlangan. Barqaror ta'minot zanjirining foydalari ko'rsatilgan.Ushbu maqola shu sohadagi ilmiy izlanuvchilar va mustaqil tadqiqtchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

KALIT SO'ZLAR: Biznes, zamonaviy biznes, ta'minot zanjiri, mexanizm, raqobatbardoshlik, xomashyo, mijoz, kompaniya, mahsulot, ishlab chiqarish, tizim, optimallashtirish

**УПРАВЛЕНИЕ ЦЕПЬЮ ПОСТАВОК И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ
ЕЕ УСТОЙЧИВОСТИ**

*КАРШИЕВА ФОТИМА ВАХОБ КЫЗЫ
Студентка направления «Менеджмент»
Факультета экономики и управления
Самаркандинского государственного
архитектурно-строительного университета
E-mail: fotimaqarshiyeva20@gmail.com*

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрываются понятия цепи поставок и ее составных частей, а также механизмы управления цепью поставок и повышения ее устойчивости. Отмечено, в чем заключаются управленические функции цепи поставок и что входит в эффективное управление ею. Показаны преимущества устойчивой цепи поставок. Данная статья может быть полезна для научных исследователей и независимых специалистов в этой области.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Бизнес, современный бизнес, цепь поставок, механизм, конкурентоспособность, сырье, клиент, компания, продукт, производство, система, оптимизация

SUPPLY CHAIN MANAGEMENT AND MECHANISMS FOR ENHANCING ITS SUSTAINABILITY

QARSHIYEVA FOTIMA VAHOB QIZI

*Student of Management, Faculty of Economics and Management
Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering*

E-mail: fotimaqarshiyeva20@gmail.com

ABSTRACT

This article discusses the concept of the supply chain and its components, as well as the mechanisms for managing the supply chain and enhancing its sustainability. It highlights the management functions of the supply chain and what constitutes effective management. The benefits of a sustainable supply chain are also presented. This article may be useful for academic researchers and independent scholars in this field.

KEYWORDS: Business, modern business, supply chain, mechanism, competitiveness, raw material, customer, company, product, production, system, optimization

KIRISH

Bugungi kunda zamnaviy biznes olamida ta'minot zanjiri tushunchasi keng ommalashmoqda. Xo'sh, ta'minot zanjiri aslida nima? U nima uchun kerak? Biz bilamizki, ta'minot zanjirini boshqarish va uning barqarorligini oshirish jarayonlarini samarali tashkil etish zamnaviy biznesni muvaffaqiyatga erishishining asosiy omili hisoblanadi. Raqamlar texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida logistika jarayonlarini optimallashtirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ayniqsa, ta'minot zanjirini samarali boshqarish zamnaviy biznesning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida tan olinadi. Ushbu ta'minot zanjiri tizimi xomashyo manbasidan tortib, tayyor mahsulotni asosiy iste'molchiga etib berishgacha bo'lgan murakkab bosqichlardan tarkib topgan. Shu sababdan, zamnaviy raqamlari tizimlardan foydalanish ta'minot zanjirining har bir sohasini samarali moslashtirishga xizmat qiladi. Endi maqolada ta'minot zanjiri tushunchasi haqida ma'lumot berib, uning bashqaruviga ham alohida to'xtalib o'tamiz.

✓ **Ta'minot zanjiri tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.** Zamnaviy iqtisodiy tizimlarda ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari tobora murakkablashib

borayotgani sababli, ta'minot zanjiri konsepsiysi tobora ko'proq e'tibor markaziga aylanmoqda. Bu zanjir ishlab chiqarishdan tortib, yakuniy mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ta'minot zanjiri samarali tashkil etilganda, resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot aylanish tezligini oshirish va mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun raqobatbardoshlikni ta'minlashda bu zanjirning har bir bo'g'ini muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'minot zanjiri — bu mahsulotlar, materiallar yoki ma'lumotlarni xom ashyo manbalaridan iste'molchigacha yetkazishda ishtirok etuvchi uch yoki undan ortiq tashkilotlar (yoki shaxslar) majmuasidir. Muhimi shundaki, bu ta'rif yakuniy foydalanuvchini ham qamrab oladi.

"Samarali ta'minot zanjiri kompaniyalarga xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot sifatini ta'minlash, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish va mijozlar talablariga tezkor javob qaytarish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta'minot zanjirining uzilishi yoki buzilishi jiddiy moliyaviy yo'qotishlarga va kompaniya obro'si tushishiga olib kelishi mumkin"ⁱ

Ushbu zanjir tizimi haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Maqolada ta'minot zanjiri boshqaruvi tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Ta'minot zanjiri boshqaruvi (SCM) – bu operatsion samaradorlikka erishish, mijoz ehtiyojini qondirish va strategik maqsadlarga yetishish uchun jarayonlar, resurslar va manfaatdor tomonlarni uyg'unlashtiruvchi tizimli yondashuvdir.

U samarali boshqaruvni ta'minlash uchun talabni bashorat qilish, inventarizatsiyani nazorat qilish va favqulodda holatlar rejasini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.ⁱⁱ

Ta'minot zanjiri materiallarning boshlanishidan yakunigacha bo'lgan yo'lni ifodalaydi. Bu jarayonda xomashyo yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlovchilar, omborlar, tashuvchilar, ulgurji va chakana savdogarlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar ishtirok etadi. Ba'zida bu zanjir yakuniy foydalanuvchida tugamay, materiallarni qayta ishslash va qayta foydalanish bosqichlarini ham qamrab oladi.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'minot zanjiri nafaqat fizik harakatlar majmuasi, balki ma'lumotlar almashinushi, texnologik integratsiya va strategik boshqaruv vositasi sifatida ham qaralmoqda. Har bir bo'g'in o'zining aniq funksiyasiga ega bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'langan holda ishlaydi. Bu bog'liqlik esa butun tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, zamonaliviy logistika va boshqaruv amaliyotida ta'minot zanjiri konsepsiyasini chuqr o'rganish va uni ilg'or raqamli texnologiyalar asosida boshqarish ayni zamon talabi sanaladi.

Ta'minot zanjiridagi barqarorlik

Barqarorlik ichki va tashqi zARBalar - ma'lum va noma'lum - oldida bardosh berish, moslashish va gullab-yashnash qobiliyatini anglatadi. Aniqroq qilib aytganda, ta'minot zanjirlarini o'z ichiga oladigan operatsion barqarorlik - bu biznesning talabidagi o'zgarishlarga moslasha oladigan va sifatni pasaytirmasdan mustahkam ishlab chiqarish quvvatini saqlab qolishidir.

Ta'minot zanjirini boshqarishda tashkilotlar uzoq muddatli noaniqlik va kutilmagan o'zgarishlarga tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun ular uchta muhim qadamni qo'llashlari mumkin:

Tezkor choralar: Avvalgi e'tiborsiz qoldirilgan muammolarni tezda aniqlash va bartaraf etish. Bu qisqa muddatli yechim bo'lsa-da, katta foyda keltiradi.

Jarayonlarni takomillashtirish: Yagona markazdan turib operatsiyalarni boshqarish, ta'minot va talabdagi o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish hamda zaxiralarni samarali boshqarish usullarini joriy etish.

Uzoq muddatli barqarorlik: Raqamli texnologiyalardan foydalanish, turli vaziyatlarni sinab ko'rish, hamkorlar bilan ma'lumot almashish va ta'minot zanjiri jamoasining kichik bir qismini alohida ajratib, ularga maxsus e'tibor qaratish orqali tizimning mustahkamligini oshirish. Mazkur yondashuv ta'minot zanjirining eng muhim qismlariga ko'proq e'tibor berishga imkon yaratadi. Shu orqali, butun tizimning samaradorligi va barqarorligini ta'minlash mumkin. Bundan tashqari, ta'minotchilar haqida ko'proq ochiq ma'lumotga ega bo'lish ham xavflarni kamaytirish uchun juda muhim. Ushbu oddiy, ammo samarali yondashuv ta'minot zanjirining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.ⁱⁱⁱ

✓ **Ta'minot turlari va ularning ahamiyati.** Ta'minot turlari ta'minot zanjiri boshqaruvida muhim o'rin tutadi. Tashkilotlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishga majbur etiladi.

ⁱ<https://makhmudov.net/taminot-zanjirini-tushunish-samarali-biznes-yuritishning-asosiy-omili/>

ⁱⁱ The World Bank. Supply Chain Management: An introduction and practical toolset for procurement practitioners. – First edition. – Washington, DC: The World Bank, 2023. – 138 p. – URL: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/1c3b517f003b53a2e2e170e93124be84-0290032023/original/World-Bank-Supply-Chain-Management-Guidance.pdf> – E-mail: pubrights@worldbank.org

ⁱⁱⁱ<https://makhmudov.net/taminot-zanjirini-tushunish-samarali-biznes-yuritishning-asosiy-omili/>

✓ **Ta'minot turlari va ularning ahamiyati.** Ta'minot turlari ta'minot zanjiri boshqaruvida muhim o'rin tutadi. Tashkilotlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki savdo faoliyatlarini amalga oshirishda turli shakllarda resurslarga muhtoj bo'ladilar. Shu sababli, ta'minot shakllarini aniqlash va ularni samarali boshqarish orqali korxona

o‘z faoliyatini barqaror, izchil va raqobatbardosh tarzda yuritishi mumkin.

Ta’minot – bu faqatgina mahsulot yoki xizmatni xarid qilish emas, balki kengroq iqtisodiy munosabatlar majmuidir. Ta’minot jarayonlari orqali mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga turli shakllarda yetkaziladi.

“Types of supplies – Supply of goods or services or both is defined as sale, transfer, barter, exchange, license, rental, lease or disposal made or agreed to be made for a consideration by a person in the course or furtherance of business.” Ya’ni, ta’minot turlari – tovarlar yoki xizmatlarning (yoki ikkalasining) ta’minoti savdo, topshirish, barter, almashuv, litsenziyalash, ijaraga berish, lizing yoki yo‘q qilish shaklida, shuningdek, shaxs tomonidan ishbilarmonlik faoliyati doirasida yoki uni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi rejalshtirilgan bitim sifatida belgilanadi.

Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, ta’minot shunchaki tovar yoki xizmatni yetkazib berishdan iborat emas. U bir necha iqtisodiy mexanizmlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’minot zanjiri barqarorligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat;

1.Ko’rinish;

2.Moslashuvchanlik va chaqqonlik;

3.Diversifikatsiya;

4.Zaxira omborlar;

5.Ta’minotchilar bilan hamkorlik;

6.Raqamlashtirish va avtomatlashtirish;

BARQAROR TA’MINOT ZANJIRINING FOYDALARI

Tez tiklanish	Buzilishlardan so’ng tez javob berish
Samaradorlik	Yaxshiroq talab prognozi va zaxira boshqaruvi
Raqobatbardoshlik	Bozor-o’zgarishlariga moslashuvchanlik
Xavfni kamaytirish	Diversifikatsiya<orqali>xavfni kamaytirish

1-jadval

XULOSA

Biz ushbu maqolada ta’minot zanjiri, uning tarkibiy qismlari, ularning ahamiyati haqida tanishib chiqdik. Ta’minot zanjiri barqarorligi biznesning mustahkamligini ta’minlaydi. Umumiy xulosa qilib aytadigan bo’lsam, texnologiyaga investitsiya kiritish va ta’minotchilar bilan kuchli hamkorlik o’rnatisht muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- <https://makhmudov.net/taminot-zanjirini-tushunish-samarali-biznes-yuritishning-asosiy-omili/>
- The World Bank. Supply Chain Management: An introduction and practical toolset

for procurement practitioners. – First edition. – Washington, DC: The World Bank, 2023. – 138 p. – URL: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/1c3b517f003b53a2e2e170e93124be84-0290032023/original/World-Bank-Supply-Chain-Management-Guidance.pdf> – E-mail: pubrights@worldbank.org

3. <https://orginfo.uz/article/1257-taminot-zanjiri-barqarorligi/>